



O'QUVCHILARNI AXLOQIY TOMONDAN RIVOJLANTIRISHDA HIKMATLI SO'ZLARDAN FOYDALANISH

Rahmonqulova Marjona Rafiqovna

Samarqand Davlat Pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

rahmonqulovamarjona67@gmail.com

Saydulloyeva Shoxsanam Mashraffjonovna

Samarqand Davlat Pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

boshlang'ich va maktabgacha ta'lim

nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy yetukligini shakllantirish jarayonida hikmatli so'zlar, pand-nasihatlar, maqol va matallarning tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqolada axloqiy tarbiyaning mazmuni, uning zamonaviy pedagogika tizimidagi o'rni hamda hikmatli so'zlarning shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: hikmatli so'zlar, axloq, mas'uliyat, yaxshilik, ezgulik, ruhiy mukammallik.

Hikmatli so'zlar – inson umrining bezagi. Hikmatli so'zlarning mazmun-mohiyati ularning xalq ma'naviyatida, tarbiya jarayonida va shaxs kamolotida tutgan o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hikmatli so'zlarning yoshlar axloqini shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va hayotiy tajribalarni anglashdagi tarbiyaviy funksiyalari bugungi kunda yanada o'z aksini topib bormoqda.



1-hikmat. “Insonning axloqli bo‘lishi, ruhiy mukammallikka erishuvi hech kim tomonidan belgilanmaydi, balki u insonning o‘z qo‘lidadir, ya’ni odam taqdirini o‘zi yaratadi. Axloqiy yetuklikka, yaxshi fazilatlarga intilish insonning tabiatidan kelib chiqadi”. (Abu Nasr Forobiy)

Bobomiz Abu Nasr Forobiy tomonidan aytilgan ushbu hikmat inson axloqi va baxt-saodatining asl manbai haqidagi chuqur fikrni bildiradi. Unda aytilishicha, insonning axloqli bo‘lishi, ruhiy poklanishi va mukammallikka erishuvi tashqi ta’sir yoki boshqa odamlarning hukmiga bog‘liq emas. Ya’ni hech kim insonning qanday bo‘lishini oldindan belgilab qo‘ymaydi. Inson o‘z xatti-harakati, fikr, irodasi va hayotga bo‘lgan munosabati orqali o‘z taqdirini o‘zi yaratadi. Shuningdek, baxt-saodat narigi dunyoda yoki kelajakdagi noma’lum joyda emas, aynan shu dunyoda, insonning kundalik hayoti, mehnat va yaxshi amallari orqali shakllanadi. Axloqiy yetuklik, ezgulik va yaxshi fazilatlar inson tabiatining ichki chuqur qatlamlaridan mavjud bo‘lib, ular insonning qalbidan, vijdonidan kelib chiqadi. Demak, har bir odam o‘z hayotidagi baxt, axloq va komillikni yaratadigan eng muhim kuchdir; u bunga o‘z ongli harakati bilan erishadi.

Bu hikmat bolalarga odobli, halol, vijdonli bo‘lishi o‘z qo‘lida ekanini o‘rgatadi. Shunda bola yaxshi xulq-atvorni tashqi majburiyat sifatida emas, balki o‘zining ichki ehtiyoji sifatida qabul qiladi. Bu hikmatli so‘z boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun axloqiy komillikka eltuvchi yo‘lni ko‘rsatadi, ularda odobga intilish, mehnat qilishga rag‘bat, hayotga ijobiy qarash, o‘z taqdirini o‘zi yaratish ishonchini shakllantiradi. Shuning uchun bu hikmatli so‘z boshlang‘ich ta’limda tarbiya va shakllanish bosqichining asosiy g‘oyalaridan biri sifatida juda foydali va zarur hisoblanadi.

2-hikmat. “Har narsadan bir samara keladi: xushmuomalalikdan-ulug‘lik, qanoatdan-rohat, ixlosdan-muhabbat. Kimki xushmuomala bo‘lsa



hurmatga erishadi, rostgo'ylik bo'lsa qadri oshadi. Kimki yomon suhbatidan qochsa, yaxshilar suhbatiga etishadi". (Yusufiy)

Bu hikmat shuni anglatadiki, hayotda insonning har bir fazilati ma'lum bir samara beradi. Xushmuomalalik insonning odobli, muloyim va hurmat bilan muomala qilishi bo'lib, bu fazilat uni boshqalarning nazarida ulug' va e'zozli qiladi. Qanoat – bor narsaga shukr qilish, ochko'zlikdan yiroq bo'lish. Qanoatli odamning hayoti osoyishta, qalbi rohatda bo'ladi. Ixlos ishni chin dildan qilish va mehr bilan yondashishni anglatadi. Ixlosli inson muhabbat va hurmatga muyassar bo'ladi. Shuningdek, rostgo'y bo'lgan odamning jamiyatda qadri oshadi, chunki halolik ishonchning asosidir. Yomon suhbatlardan qochgan inson o'zini illatlardan asrab, yaxshilar davrasiga kiradi. Inson o'z odobi, so'z va muomalasi orqali hayotda kim bo'lishini o'zi belgilaydi. Yaxshi fazilatlar insonning qadrini oshiradi, yomon suhbat va illat esa uni qadsiz qiladi.

O'quvchilar bu orqali boshqalar bilan muomala qilish ularga muloyim gapirish, hurmat bilan muomala qilishni o'rganadi. Bu hikmat bolalarda yaxshi xulq-atvor, hurmat, mehribonlik va halollik kabi fazilatlarni o'stiradi. Bu fazilatlar bolaning kelajakdagi shaxs sifatida yetuk bo'lishiga zamin yaratadi.

3-hikmat.

Elni aybini zohir etmog'i,

Yuqdur insofli ila muruvvatdan.

Ulki, el aybini qilur nihon,

Tangri saqlar ani har ofatdin. (Nodira)

Zohir – 1. ko'rinib turgan, ochiq-oshkora, ayon; 2. tashqi ko'rinish, biror narsaning sirti



Nihon – pinhon, maxfiy; yashirmoq, berkitmoq.

Nodiraning ushbu hikmatli soʻzlarida insoniylikning eng yuksak mezonini sifatida – el aybini yashirish, birovni sharmanda qilmaslik gʻoyasi ilgari suriladi. Shoira odamlar orasida hurmat topgan, komil inson boʻlish uchun, avvalo, boshqalarning kamchiligini oshkor qilmaslik kerakligini taʼkidlaydi. Chunki insonning aybini koʻr-koʻrona fosh etish insofdan va muruvvatdan yiroq ish sanaladi. Ayb izlash gʻiybat qilish yoki birovni sharmanda qilish jamiyatda adovat va ishonchsizlikka sabab boʻladi. Asksincha, kim xalqning kamchiligini yashirsa, u oʻzining mehribonligi, bagʻrikengligi va ulugʻ axloqiy fazilati bilan boshqalardan ajralib turadi. Masalan, maktab oʻquvchilari orasida baʼzan kimning kiyimi, daftar yoki buyumlari chiroyliroq boʻlsa, boshqalar unga havas bilan qaraydi, bu esa ayrim hollarda hasad yoki oʻzini past baholash tuygʻusini uygʻotadi. Shoira bunday insonni Alloh har qanday ofat va balolardan asrashini taʼkidlaydi. Bu orqali Nodira odamlarni kechirimli boʻlishga, birovning kamchiligini ochib emas, uni tuzatishga harakat qilishga chaqiradi. Insonning goʻzalligi uning soʻzida emas, balki amaliy axloqida namoyon boʻladi. Shu bois, boshqalarning aybini yashirish nafaqat ijtimoiy totuvlikni taʼminlaydi, balki Allohning roziligiga eltuvchi eng savobli ish sifatida ulugʻlanadi. Bu hikmat bizga shuni uqtiradiki, haqiqiy komillik –boshqalarni ayblashda emas, balki ularni ezgulikka boshlash va yaxshilik bilan yoʻl koʻrsatishda namoyon boʻladi. Bu hikmat orqali oʻquvchilar sinfdoshlariga nisbatan hurmatli boʻlishi, birovning kamchiligini kulgi qilmaslik, yordam qoʻlini choʻzish, kechirimli va bagʻrikeng boʻlishni oʻrganadilar. Bunday fazilatlar sinfda doʻstona muhitni yaratadi, oʻquvchilar oʻrtasida mehr-oqibat va hamjihatlikni kuchaytiradi. Natijada, bolalar bir-birini tushuna oladigan, oʻzaro hamkorlik va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantiradilar. Shuningdek, hikmat bolalarda axloqiy ongini, yurak pokligini, masʼuliyat va vijdonni uygʻotadi. Kimningdir aybini yashirish uni qoʻllab-quvvatlash emas, balki uni xafa qilmaslik va toʻgʻri yoʻlga boshlashdir, degan tushunchalar bolada insonparvarlik tuygʻularini rivojlantiradi.



4-hikmat. “Nazariy bilimlarni o‘rganmoqchi bo‘lgan kishi nazariy bilimlardan zavq va lazzat oladigan inson bo‘lishi, shu bilimni o‘rganish yo‘lida uchraydigan har turli ranch-mashaqqatlarga bardosh berishi, tabiatan to‘g‘ri va to‘g‘rilikni sevadiganlardan bo‘lishi, o‘zi odil va adolatli bo‘lishi, istagan narsasida ortiqcha xudbin, o‘jar va qaysar bo‘lmasligi va yemoq-ichmoqda ortiqcha ochko‘z, xo‘ra bo‘lmasligi ham shart”. (Abu Nasr Forobiy)

Abu Nasr Forobiy bu fikridan shuni uqtiradiki, ilmga intilgan inson, avvalo, nazariy bilimlarni chin qalbdan sevishi va ulardan zavq ola bilishi lozim. Chunki haqiqiy ilmga muhabbat bo‘lmasa, inson uni chuqur o‘rganishga kuch va sabr topa olmaydi. Forobiy ilm egallash yo‘lida uchraydigan turli qiyinchiliklar, mehnat va mashaqqatlar aslida ilmning sinovi ekanini ta’kidlaydi. Ilm talabasi bu sinovlarga bardosh bera olishi, ularni sabr bilan yengib o‘tishi shaxsiy kamolotning asosiy mezonidir. Muallif ilm egasining axloqiy fazilatlariga ham alohida urg‘u beradi. Unga ko‘ra, ilm o‘rganuvchi inson tabiatiga ko‘ra halol, rostgo‘y va to‘g‘ri bo‘lmog‘i kerak. U boshqalarga adolat bilan munosabatda bo‘lishi, hech kimga zulm qilmasligi, xudbinlikdan yiroq bo‘lishi zarur. Shuningdek, odam o‘z nafsining quliga aylanmasligi, haddan ziyod ochko‘z, hirsli yoki orzu-havasga berilgan bo‘lmasligi ham ilm egasiga xos sifatdir.

Forobiy fikricha, haqiqiy ilm faqat ma’lumot emas, balki insonning axloqiy pokligi va ruhiy barkamolligi bilan uyg‘unlashgan yuksak qadriyatdir. Agar ilm axloq bilan birga bo‘lmasa, u insonni yuksaltirmaydi, aksincha, zarar ham yetkazishi mumkin. Shu bois, ilmga intilgan har bir kishi o‘z qalbini poklashi, o‘zini tarbiyalashi, sabr va adolatni hayot mezoni sifatida qabul qilishi shart. Bu hikmat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga ilmning qadri, intizom, odob, sabr va halollik kabi hayotiy fazilatlarni singdirishda juda katta ahamiyatga ega. Ular kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishlari uchun poydevor yaratadi.



Ushbu hikmatlar inson axloqi va shaxsiy kamolotining asosiy mezonini ko'rsatadi. Axloqiy mukammallik insonning o'z qo'lidadir. Inson o'z taqdirining yaratuvchisi sifatida yaxshi fazilatlarga intilishi, o'zini tarbiyalashi va ruhiy barkamollikka erishishi mumkin. Hikmatli so'zlar shaxs erkinligi, mas'uliyat, ma'naviyat va insoniylikning uyg'unligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzo Ho'qandiy. Yigirma hikmat. "Tuhfatul atfol" (Bolalar sovg'asi).
«Yozuvchi» nashriyoti, Toshkent 1992 y
2. Toxtaxodjayeva M.X., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M.,
Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N.
Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Toshkent: «O'zbekiston
faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010 y. 400 b.
3. www.ziyouz.com